

YANGI IQTISODIY SIYOSAT VA TURKISTON O'LKASIDAGI AGRAR MUNOSABATLAR: TARIXIY VA IQTISODIY TAHLIL

Akbayeva Zebiniso Djalolitdinovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada yangi iqtisodiy siyosatning Turkiston hududidagi agrar munosabatlarga ta'siri o'rganilgan. Maqola, yangi siyosatning agrar sektorning rivojlanishi, yer munosabatlari, mehnat resurslari va qishloq xo'jaligi faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qiladi. Ayniqsa, yer islohotlari, kooperatsiya tizimlari va agrar islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini batafsil yoritilgan. Ushbu maqola o'sha davrda qo'llanilgan iqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, agrar sohadagi o'zgarishlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Yangi iqtisodiy siyosat, agrar munosabatlar, Turkiston, yer islohoti, qishloq xo'jaligi, kooperatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, agrar sektori, qishloq xo'jaligi rivoji, mehnat resurslari.

THE NEW ECONOMIC POLICY AND AGRARIAN RELATIONS IN THE TURKESTAN REGION: A HISTORICAL AND ECONOMIC ANALYSIS

Abstract: The article examines the impact of the new economic policy on the agrarian relations in the Turkestan region. It analyzes how the new policy affected the development of the agrarian sector, land relations, labor resources, and agricultural activities. Special attention is given to land reforms, cooperative systems, and the socio-economic consequences of agrarian reforms. The article is aimed at studying the peculiarities of the economic policy of the time, as well as analyzing changes in the agrarian sector.

Keywords: New economic policy, agrarian relations, Turkestan, land reforms, agriculture, cooperation, socio-economic changes, agrarian sector, agricultural development, labor resources.

НОВАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА И АГРАРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ОБЛАСТИ ТУРКЕСТАНА: ИСТОРИКО- ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: В статье рассматривается влияние новой экономической политики на аграрные отношения в регионе Туркестан. Осуществлен анализ воздействия новой политики на развитие аграрного сектора, земельные отношения, трудовые ресурсы и деятельность сельского хозяйства. Особое внимание уделено земельным реформам, кооперативным системам и социально-экономическим последствиям аграрных реформ. Статья направлена

на изучение специфики экономической политики того времени, а также на анализ изменений в аграрной сфере.

Ключевые слова: Новая экономическая политика, аграрные отношения, Туркестан, земельные реформы, сельское хозяйство, кооперация, социально-экономические изменения, аграрный сектор, развитие сельского хозяйства, трудовые ресурсы.

Kirish. Yangi iqtisodiy siyosat 1921-yilda Sovet Ittifoqida iqtisodiy inqiroz va harbiy kommunizm siyosatining muvaffaqiyatsizligi natijasida joriy etilgan yangi siyosiy-iqtisodiy strategiya sifatida shakllandi. Ushbu siyosat mahalliy dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash hamda xususiy tadbirkorlik faoliyatiga cheklangan darajada ruxsat berishni o'zining asosiy maqsadlari sifatida belgiladi. Yangi iqtisodiy siyosat davrida iqtisodiy munosabatlarning agrar sektorda bozor mexanizmlarining qisman tiklanishi hamda ishlab chiqarish va savdo faoliyatlarida yangi shakllarning paydo bo'lishiga olib keldi. Turkiston o'lkasi, agrar sektorga yuqori darajada bog'liq bo'lgan hudud sifatida, ushbu siyosat ta'sirida jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Ayniqsa, yer egaligi, dehqonchilik munosabatlari va agrar ishlab chiqarish tizimida yangicha tartiblarning joriy etilishi ijtimoiy-iqtisodiy muhitda sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ushbu maqolada NEP davrida Turkiston o'lkasida agrar munosabatlarning shakllanishi, ularning hududiy xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari keng qamrovli tahlil qilinadi. Maqolada mahalliy dehqonchilikning siyosiy-iqtisodiy ahamiyati, yangi iqtisodiy sharoitdagi xususiy tadbirkorlik faoliyati, shuningdek, Yangi iqtisodiy siyosatning agrar sektor va umumiy ijtimoiy barqarorlikka ta'siri o'rganiladi.

Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davrida agrar sohada davlat va dehqonlar o'rtasidagi munosabatlarni yumshatish va dehqonlarning yer maydonlari hamda mulkka egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan fundamental o'zgarishlar amalga oshirildi. Harbiy kommunizm davrida amalda bo'lgan majburiy davlatga yetkazib berish tartibining o'rnini bozor iqtisodiyotining shartlariga mos keladigan erkin iqtisodiy munosabatlar egalladi. Bu esa dehqonlarga o'z mahsulotlarini mustaqil ravishda sotish va iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etish imkonini berdi. Turkiston o'lkasi agrar soha iqtisodiyotining asosiy tarmog'i bo'lib, aholining katta qismi dehqonchilik bilan shug'ullanganligi sababli, bu o'zgarishlar mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmasida tub burilishlarga sabab bo'ldi [1].

1921-1929-yillar mobaynida NEP siyosati doirasida Turkiston o'lkasida yer taqsimoti va yer egaligi tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Mintaqadagi ko'plab dehqonlar yer egasi sifatida rasmiy tan olinib, mustaqil xo'jalik yurita boshladilar. Bu esa agrar ishlab chiqarishda shaxsiy tashabbus va mustaqillik darajasining oshishiga olib keldi. Soliq siyosatida ham o'zgarishlar kuzatilib, davlat tomonidan belgilangan majburiy yetkazib berish kvotalari sezilarli darajada kamaytirildi, natijada erkin bozor munosabatlari shakllandi. Ushbu jarayonlar dehqonchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilib, agrar sektorning barqaror rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Shuningdek, NEP siyosati agrar munosabatlarda yangi sinfiy qatlamlarning paydo bo'lishiga ham sababchi bo'ldi. Mustaqil yer egalari sifatida faoliyat yurita boshlagan dehqonlar va kichik tadbirkorlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimda o'z o'rnini topdi, biroq bu jarayonda sinfiy tafovutlar va ziddiyatlar yuzaga keldi. Natijada, agrar sektorning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy jihatdan ham mintaqaning barqarorligiga ta'sir ko'rsatdi [1].

Turkiston ASSRda xalq xo'jaligini tiklashda yangi iqtisodiy siyosat davrida ham bir qator jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Avvalo yangi iqtisodiy siyosat Turkiston ASSRda notekis amalga oshirildi. 1921 yili Turkistonda ekin maydonlari oldingi yildagiga qaraganda ancha kengaytirildi. Biroq keyingi uch yilda (1922-1924 yillar) ekin maydonlari yana qisqardi. 1924 yili Turkiston ASSR ning asosan o'zbeklar yashaydigan uchta oblasti (Fargona, Samarkand, Sirdaryo)da ekin maydonlari ham, sugoriladigan ekin maydonlari ham urushdan oldingi davr (1913 yil)ning 60 foizi atrofida edi. Xullas, yangi iqtisodiy siyosat dastlabki yillarda o'lka xalq xo'jaligining asosiy sohasi qishloq xo'jaligiga sust ta'sir ko'rsatdi. Turkiston ASSRda sanoat asosan ikki yo'l bilan rivojlandi: eski zavodlarni tiklash hamda yangi korxonalar va soha tarmoqlarini tashkil etish. Bunda birinchi galda paxtani qayta ishlaydigan korxonalar va xomashyo tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi [2].

Yangi iqtisodiy siyosat doirasida amalga oshirilgan kolxozlashuv jarayoni Turkiston o'lkasida agrar munosabatlarning tubdan o'zgarishiga olib keldi. Bu jarayon o'zining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlari bilan nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimini, balki dehqonlarning turmush tarzini, yerga bo'lgan munosabatini ham keskin o'zgartirdi. Ayniqsa, 1929–1933-yillarda SSSR bo'ylab amalga oshirilgan majburiy kollektivlashtirish siyosati Turkiston hududida ham keskin o'zgarishlarga sabab bo'ldi [3].

1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida Sovet Ittifoqida kollektivlashtirish siyosati jadal sur'atlar bilan amalga oshirildi. Bu siyosat Markaziy Osiyo respublikalari, jumladan O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonda og'ir va murakkab sharoitda kechdi. Kollektiv xo'jaliklar (kolxozlar) va davlat xo'jaliklari (sovxozlar)ning tashkil etilishi natijasida yerga egalik qilish huquqi to'liq ravishda davlat qo'liga o'tdi. Yakka tartibdagi dehqonchilik bekor qilinib, ishlab chiqarish vositalari jamiyat mulkiga aylantirildi. Mazkur siyosat natijasida mahalliy aholining iqtisodiy hayoti tubdan o'zgardi. An'anaviy qishloq xo'jaligi tuzilmalari, xususan oilaviy mehnatga asoslangan dehqonchilik shakllari tugatildi va ularning o'rnini markazlashgan, davlat tomonidan nazorat qilinadigan yirik xo'jalik tizimlari egalladi. Bu holat o'z navbatida mehnat erkinligining cheklanishi, majburiy mehnat tartiblarining joriy etilishi, aholi harakatining cheklanishi va iqtisodiy faoliyat ustidan qat'iy davlat nazoratining o'rnatilishi bilan kechdi [4].

Biroq, kolxozlashuvning dastlabki yillarida Turkiston o'lkasidagi dehqonlar ushbu siyosatga faol qarshilik ko'rsatdilar. Bu qarshiliklar, ko'pincha passiv norozilik, hosilni yashirish, hayvonlarni so'yib yuborish yoki ommaviy ko'chish shaklida namoyon bo'lgan. Ayniqsa, an'anaviy erkin yer egaligi va qabilaviy tuzilmaga asoslangan dehqon xo'jaliklari kollektivlashtirish jarayoniga moslashishda

qiyinchiliklarga duch keldi. Dehqonlarning psixologik va madaniy qarshiligi – ularning erkin yerga bo‘lgan qadimiy e‘tiqodlari va shaxsiy mulkka nisbatan an‘anaviy munosabati bilan bog‘liq edi [5].

Bunday qarshiliklar agrar islohotlarni amalga oshirishda sezilarli to‘siqlarni yuzaga keltirdi. Natijada, davlat tomonidan kuch ishlatish, targ‘ibot va jazolash choralari keng miqyosda qo‘llanildi. Shu bilan birga, kolxozlashuv jarayoni mahalliy ijtimoiy tuzilmani izdan chiqardi, mavjud ishlab chiqarish vositalarini yo‘qotishga olib keldi va Turkiston qishloq xo‘jaligida uzoq muddatli inqirozli davrni boshlab berdi.

Xulosa. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davrida Turkiston o‘lkasidagi agrar munosabatlar sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. NEP siyosati agrar sektorda erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonchilik faoliyatini rag‘batlantirish hamda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishga qaratilgan edi. Ushbu siyosat doirasida yerga egalik, hosilni sotish va ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari yaratilgani natijasida, mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu jarayon mahalliy aholi uchun iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi oshishi va qishloq infratuzilmasining rivojlanishi kabi ijobiy natijalar bilan birga, yangi sinfiy tafovutlar va ijtimoiy qatlamlar orasida keskinliklarning kuchayishiga ham olib keldi. Shuningdek, agrar munosabatlardagi o‘zgarishlar mintaqadagi siyosiy vaziyatga ham ta’sir ko‘rsatib, mahalliy siyosiy nizolar va ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. NEP davrining agrar munosabatlarini chuqur o‘rganish Turkiston va umumiy O‘zbekiston tarixini, shuningdek, sovet davrining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini yanada yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi. Mazkur tahlil agrar sektorning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, yangi iqtisodiy siyosat sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy sinfiy o‘zgarishlar va siyosiy jarayonlar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni yoritishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adib Xolid. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 160-161.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 1. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 266.
3. Fitzpatrick S. *Stalin's Peasants: Resistance and Survival in the Russian Village after Collectivization*. Oxford University Press. 1994. – P. 228.
4. O‘z MA. 17-fond, 3-ro‘yxat, 717-ish, 76-varaq.
5. Keller S. *To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, 1917–1941*. Praeger. 2001. – P. 167.